

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmati
ko‘rsatish to‘g‘risida kelishuvning
1-ILOVASI**

**Milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish, xizmat ko‘rsatish
va yopish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

Pul mablag‘lari – O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi “so‘m” dagi pul mablag‘lari;

“Faktura.uz” axborot tizimi – bitimlar tuzish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, rasmiy va norasmiy yozishmalarni almashish maqsadida “Faktura.uz” elektron hujjat aylanishi axborot tizim orqali elektron hujjatlarni shakllantirish, qabul qilish, jo‘natish va yetkazib berish bo‘yicha jarayonlar yig‘indisini amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy-apparat vositalaridan tashkil topgan, Axborot vositachisining axborot tizimi;

Tartib - mazkur milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish, xizmat ko‘rsatish va yopish Tartibi. Ushbu Tartib Bank saytida joylashtirilgan.

Hisobvaraqlar – Mijozning birinchi talabi bilan beriladigan yoki ko‘chiriladigan uning pul mablag‘lari hisobi yuritiladigan, Bank tomonidan Arizaga yoki Mijozga hisobvaraqlar ochish to‘g‘risidagi Arizaga asosan Mijozning nomiga ochiladigan milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta‘riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Tartib Mijoz tomonidan o‘z qo‘li yoki ERI bilan imzolangan Arizaga asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi) va Mijozga hisobvaraqlar ochish va yopish, unga keladigan pul mablag‘larini qabul qilish va kirim qilish, hisobvaraqlardan pul mablag‘larini ko‘chirib berish va to‘lab berish, kassa xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek, amaldagi Qonunchilikda, MBX va ushbu Tartibda nazarda tutilgan tartibda hisobvaraqlar bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (o‘tkazish) bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank Tariflari, Ariza, Ommaviy oferta va hisobvaraqlar ochish to‘g‘risida Ariza (hisobvaraqlar Davlat xizmatlari markazi orqali ochilgan bo‘lsa yoki “Faktura.uz” axborot tizimi orqali yuborilgan bo‘lsa) birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida Milliy valyutadagi bank hisobvaraqlar i shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) orqali tuzilgan hisoblanadi.

III. TARAFLARNING MAJBURIYATI

3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. amaldagi qonunchilik doirasida Mijozning topshirig‘i bo‘yicha hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa kassa-hisob operatsiyalarini bajarish, shu jumladan:

a) Pul mablag‘lari kelganligi haqidagi tegishli to‘lov hujjatlarining Bank tomonidan olinishiga qarab o‘sha kunning o‘zida yoki keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Mijozning hisobvaraqlariga pul mablag‘larini kirim qilish;

b) tegishli hisob-kitob hujjatiga asosan pul mablag‘larini hisobvaraqlardan ko‘chirish (o‘tkazish) to‘g‘risidagi topshiriqlarni bajarish;

v) Amaldagi qonunchilik doirasida Mijozning qarz majburiyatlari bo‘yicha to‘lov talabnomalarini va inkasso topshiriqnomalarini ijro qilish;

g) amaldagi qonunchilik va “Kapitalbank” ATBning lokal (ichki) hujjatlariga asosan naqd pul mablag‘larini qabul qilish va Mijozga berish;

d) boshqa hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish (Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan alohida shartnomalar bilan tartibga solinadigan operatsiyalar bundan mustasno).

3.1.2. Mijozning hisobvarag'idan hisob-kitob hujjati kelib tushgan kunda yoki keyingi ish kundan kechiktirmasdan faqatgina uning topshirig'i bo'yicha yoki uning roziligi bilan (akseptsiz to'lov talabnomasi va inkasso topshiriqnomasi bundan mustasno) pul mablag'larini o'chirish. Mijozning hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa yoki yetarli bo'lmasa, Bank to'lov hujjatining to'lov qilinmagan summasini Kartoteka-2 ga joylashtiradi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

3.1.3. Mijozlarga xizmat ko'rsatish jadvalida belgilangan vaqtda Mijozga xizmat ko'rsatish (dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlar bundan mustasno);

3.1.4. O'z.R.qonunchiligiga asosan Mijozning topshirig'i bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish. Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini o'chirish uning topshirig'iga asosan to'lov hujjatlari Bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirilmagan amalga oshiriladi. Mijozning rozilgisiz uning hisobvarag'idan pul mablag'larini o'chirish O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda amalga oshiriladi;

3.1.5. Hisob-kitob operatsiyalarini Mijozning topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida o'rnatilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalariga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirish. Pul hisob-kitob hujjatlarini faqatgina imzolar namunasi va muhr izi qo'yilgan (agar muhr nazarda tutilgan bo'lsa) varaqchada ko'rsatilgan va/yoki Mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxslardan ijroga qabul qilish;

3.1.6. tegishli hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishda barcha kerakli rekvizitlarning, imzolarning va boshqa ma'lumotlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish, lozim daraja rasmiylashtirilgan tegishli hisob-kitob hujjatlarining u olingan kunda (agar ular operatsion kun davomida kelib tushgan bo'lsa) yoki keyingi ish kundan kechikmasdan (agar ular operatsion kun tugaganidan keyin kelib tushgan bo'lsa) ijrosini ta'minlash;

3.1.7. Mijozni kassa hujjatlari bilan ta'minlash (naqd pul mablag'larini kiritishga ariza blankasi va boshqa zarur blankalar);

3.1.8. Mijozning yoki amaldagi ishnochnomaga asosan uning vakili topshirig'i bo'yicha hisobvaraقدan ko'chirmalar va boshqa hujjatlarni taqdim qilish;

3.1.9. Mijozning hisobvarag'adagi pul mablag'larining butligini ta'minlash;

3.1.10. Mijozning hisobvarag'ida bo'sh pul mablag'lari mavjud bo'lsa yoki hisobvaraقدa pul mablag'lari yetarli bo'lmaganligi munosabati bilan bron mavjud bo'lsa, Mijozning birinchi talabi bilan birinchi navbatda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarning to'lanishini ta'minlash;

3.2. Mijozning majburiyatlari:

3.2.1. hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bankka barcha kerakli hujjatlarni taqdim qilish;

3.2.2. Bankning ish jadvalida, tegishli hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim qilish tartibiga, shuningdek, "Kapitalbank" ATBning Shartnoma predmetiga aloqador boshqa ichki hujjatlariga rioya qilish, shuningdek, O'z.R.MBning amaldagi normativ hujjatlari talablarini bajarish;

3.2.3. Bank tomonidan Mijozning naqd pulga bo'lgan talabini aniqlash maqsadida har kvartal boshlanishidan 30 kun oldin Bankka belgilangan shaklda kassa buyurtmanomasi taqdim qilish;

3.2.4. hisobvaraقدa pul mablag'lari mavjud bo'lsa, ish haqi, pensiya va nafaqa to'lash kalendar jadvalida asosan naqd pulni olishdan bir kun oldin Bankka pul cheki taqdim qilish va olingan pul mablag'laridan qat'iy tarzda maqsadli foydalanish;

3.2.5. to'lovlarni amalga oshirish maqsadida o'z Hisobvarag'ida yetarli hajmda Pul mablag'lariga ega bo'lish;

3.2.6. ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun Bank Tariflarida nazarda tutilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirish;

3.2.7. Deponentga o'tkazilgan ish haqi, pensiya, nafaqa va moddiy yordam pullarini belgilangan muddatlarda Bank kassasiga topshirish;

3.2.8. o'z kassasidan naqd pulni kirim va chiqim qilish tartibiga, kassa intizomiga, shuningdek, limitdan tashqari naqd pulni inkassatsiya xizmati orqali Bankka topshirish tartibiga rioya qilish;

3.3. Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma rozilgisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.4. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.5. Hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma olgan (yoki hisobvarag'ining holati to'g'risida ma'lumot olgan) kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida hisobvarag'iga tushgan begona pul mablag'lari haqida Bankka xabar berish.

IV. TARAFLARNING HUQUQI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, O‘z.R. MBning normativ hujjatlarida, “Kapitalbank” ATBning ichki hujjatlarida o‘rnatilgan hisob-kitoblar tartibining buzilish holatlari aniqlanganda, shuningdek, Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o‘z vaqtida taqdim qilish tartibi buzilganida operatsiya o‘tkazishni to‘xtatib turish (qonunga zid to‘lovni o‘tkazishni rad qilish) bo‘yicha choralar ko‘rish va/yoki uni o‘tkazishni to‘xtatib turish;

4.1.2. Mijozning bo‘sh pul mablag‘laridan, uning butligini va Mijoz tomonidan o‘z mablag‘larini erkin tasarruf etilishini kafolatlagan holda resurs sifatida foydalanish;

4.1.3. bank operatsiyalarini o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlarning haqqoniyligiga shubha paydo bo‘lganida, bank operatsiyasini o‘tkazishni to‘xtatib turish, bunda Mijozning imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarini ogohlantirish. Ushbu holatda Bank Mijozdan o‘tkazilayotgan Operatsiyaning asoslanganligini tasdiqlovchi qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish huquqiga ega;

4.1.4. Quyidagi holatlarda Mijozga pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalar o‘tkazishni rad qilish:

- Mijozning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz harakat qilish huquqiga ega shaxs o‘z manzili (pochta manzili) bo‘yicha bo‘lmasa;

- qasddan soxta hujjatlar taqdim etilganida yoki O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq so‘ralayotgan hujjatlar taqdim etilmaganida;

- terroristik va boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok qilish haqida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan olingan ma‘lumotlar yoki shubhalar mavjud bo‘lsa;

- O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda hisobvaraqa mavjud pul mablag‘lariga ta‘qiq solish yoki hisobvaraqa bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish;

4.1.5. Amaldagi qonunchilikka asosan shaxslar Ro‘yxatga tushsa, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va “Kapitalbank” ATBning lokal hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda Mijozning roziligisiz pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni muzlatish va/yoki to‘xtatib turish (pul mablag‘larini kirim qilish bo‘yicha operatsiyalar bundan mustasno). Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni muzlatilganida va (yoki) to‘xtatib qo‘yilganida, Mijozning topshirig‘iga asosan Pul mablag‘larini hisobvaraqdan o‘chirish amalga oshirilmaydi;

4.1.6. Mijozning talab qilib olinguncha asosiy hisobvarag‘ida Kartoteka-2 mavjud bo‘lsa, uning boshqa banklarda ochilgan ikkilamchi va boshqa hisobvaraqlaridagi pul mablag‘larini asosiy hisobvaraqa ko‘chirish (O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan ushbu talab qo‘llanilmaydigan hisobvaraqlar bundan mustasno);

4.1.7. Bank ish kuni tugaganidan va balans hisoboti tuzilganidan so‘ng xatoliklar aniqlansa, keyingi bank kunida Mijozning roziligisiz uning hisobvarag‘idan xato kirim qilingan tegishli summalarni tuzatilgan teskari buxgalteriya o‘tkazmasini amalga oshirish orqali o‘chirish;

4.1.8. qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda Mijozning milliy valyutadagi asosiy hisobvarag‘ida pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa va valyuta hisobvarag‘ida valyuta mablag‘lari mavjud bo‘lsa, byudjetga va boshqa qarzdorliklar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida Mijozning roziligisiz uning valyuta mablag‘larini qarzdorlikni qoplash uchun yetarli bo‘lgan hamda sotish kunidagi kurs bo‘yicha sotishni amalga oshirish;

4.1.9. Kelishuvning 8.5-bandida nazarda tutilgan tartibda hisobvaraqni mustaqil yopish.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini Amaldagi qonunchilik doirasida, Kelishuv va Shartnoma shartlarida erkin tasarruf qilish;

4.2.2. Bankka hisob kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun topshiriqlar berish, ularning o‘z vaqtida ijro qilinishini talab qilish, inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar to‘g‘risida so‘rovlar berish;

4.2.3. hisobvaraqa pul mablag‘lari yoki pul mablag‘lariga bron mavjud bo‘lsa, ish haqi to‘lash jadvaliga asosan qonunchilikka asosan naqd pul mablag‘lari olish;

4.2.4. belgilangan joyga tushmagan pul mablag‘larini qidirish, ularning joyini aniqlash va qaytarish bo‘yicha Bankka iltimosnoma bilan murojaat qilish;

4.2.5. O‘zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi, ularga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bo‘yicha ma‘lumot olish;

4.3. Bank qonunchilikda, Kelishuvda va ushbu Tartibda nazarda tutilgan hollardan tashqari, Mijozning pul mablag‘laridan o‘z xoxishiga ko‘ra foydalanish va ularni tassarruf qilish huquqiga cheklov o‘rnatish huquqiga ega emas.

4.4. Taraflar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

V. VOSITACHILIK HAQI VA UNI TO‘LASH TARTIBI

5.1. Mijoz bank xizmatlari ko‘rsatilganligi uchun Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to‘laydi.

5.2. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni, nafaqalarni va stipendiyalarni berishda, shuningdek, Mijozning hisobvarag‘iga pul mablag‘larini kirim qilganlik uchun Bank vositachilik haqi olmaydi.

5.3. Quyidagi hollarda mijozlarning passiv hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatganlik uchun har oylik vositachilik haqi hisoblanmaydi va olinmaydi:

a) Mijozning milliy valyutadagi hisobvarag‘idan yoki tranzit hisobvarag‘idan bir oy davomida biror bir operatsiya o‘tkazilmagan bo‘lsa;

b) Mijozning hisobvarag‘idan faqat kredit operatsiyalari o‘tkazilgan bo‘lsa;

v) ssuda hisobvaraqlar bo‘yicha qarzdorlik qoplanganida;

g) 16300- “olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar”, 16400- “olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizsiz daromadlar” hisobvaraqlari bo‘yicha qarzdorlik hisoblanganda va so‘ndirilganda;

d) bank filiali ichida (Mijozning unikal kodi to‘g‘ri kelishi sharti bilan) Mijozning milliy valyutadagi bir hisobvarag‘idan ikkinchi hisobvarag‘ila pul mablag‘lari o‘tkazilganda;

ye) korporativ karta to‘ldirilganida(Mijozning unikal kodi to‘g‘ri kelishi sharti bilan);

yo) pul mablag‘lari aniqlash jarayonidagi hisobvaraqlarga o‘tkazilganida;

j) mijozning unikal kodi bilan bir xil bo‘lgan unikal kod bilan ochilgan maxsus blok-hisobvaraqq to‘ldirilganda;

z) Bankning bir filialidan ikkinchi filialiga Mijozning hisobvarag‘i saldosi o‘tkazilganida (joriy oyda hisobvaraqq bo‘yicha operatsiyalar mavjud bo‘lmasa).

5.4. Hisobvaraqlarda mavjud pul mablag‘laridan foydalanganlik uchun Bank Mijozga foizlar to‘lamaydi, Bank va Mijoz o‘rtasida tuziladigan alohida shartnomalar bundan mustasno.

5.5. Mijozlarning passiv hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatganlik uchun vositachilik haqi Mijozning farmoyishsiz, akseptsiz tartibda, memorial order orqali har oyda Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha joriy oyda birinchi to‘lov o‘tkazilganida hisobvaraqqdan yechib olinadi, bunda, birinchi navbatda passiv hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatganlik uchun vositachilik haqi olinadi (byudjet oldidagi qarzdorlikni to‘lash hollari va amaldagi qonunchilik hamda Bankning ichki hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan boshqa hollar bundan mustasno), Mijoz bunga o‘zining chaqirib olinmaydigan va nizosiz roziligini bildiradi.

5.6. Mijozning hisobvarag‘ida vositachilik haqini to‘lash uchun pul mablag‘lari mavjud bo‘lmaganida yoki yetarli bo‘lmaganida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to‘lov talabnomasi qo‘yish orqali Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to‘lov talabnomasi biror-bir ko‘shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Taraflar Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo‘ladi.

6.2. Shartnoma Mijozning arizasi bo‘yicha, Mijoz tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganida Bank talabi bilan chiqarilgan sudning qarori bo‘yicha, shuningdek, amaldagi qonunchilikda va Kelishuvda ko‘rsatilgan boshqa hollarda bekor qilingunga yoki to‘xtatilgunga qadar amal qiladi.

6.2.1. Shartnoma Mijoz tomonidan unga bank xizmatlari ko‘rsatilganligi bilan bog‘liq barcha to‘lovlar to‘langanidan so‘ng istalgan vaqtda tegishli tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.3. Shartnoma to‘xtatilgan yoki bekor qilinganidan so‘ng Bank Mijozning arizasiga asosan hisobvaraqqni yopadi, 7 (yetti) ish kunidan kechiktirmasdan unga Hisobvaraqqda mavjud pul mablag‘larining qoldig‘ini beradi yoki uning topshirig‘iga asosan pul mablag‘larining qoldig‘ini boshqa hisobvaraqqga o‘tkazadi. Shartnoma to‘xtatilgan yoki bekor qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida Mijoz Bankka pul mablag‘larini boshqa hisobvaraqqga o‘tkazish haqida yozma ko‘rsatma bermasa, Bank pul mablag‘lari qoldig‘ini Mijozning hisobvarag‘idan 29842 hisobvaraqqga o‘tkazadi.

6.4. Shartnoma va/yoki Kelishuvning to‘xtatilishi yoki bekor qilinishi hisobvaraqqni yopish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mijozning asosiy/ikkilamchi hisobvaraqlari unga tegishli boshqa hisobvaraqlar (tranzit, sxemali, maxsus, maqsadli va boshq.) yopilganidan so‘ng yopiladi.

6.5. Mijoz 6 (olti) oy mobaynida, savdo va savdo-vositachilik faoliyatida esa 3 (uch) oy mobaynida hisobvaraqlar bo‘yicha pul operatsiyalarini o‘tkazish bilan moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmagan hollarda

Shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama to'xtatib qo'yiladi, shunga teng ravishda, Mijoz qonunchilikda o'rnatilgan muddatlarda Ustav fondini shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish komissiyasi tomonidan tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganida amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib qo'yish amalga oshiriladi.

6.5.1. Mijoz qonunchilikda o'rnatilgan muddatlarda Ustav fondini shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish komissiyasi tomonidan tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganida Shartnomani to'xtatib qo'yish amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.6. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganda Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

6.7. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

6.8. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.